E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

ODDIY IGIR (*ACORUS CALAMUS L.*) BIOEKOLOGIYASI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Isaqov Tohirjon Tursunboy o'g'li
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, O'zbekiston Respublikasi
E-mail: tohirjonisaqov07@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekiston o'simlik dunyosi juda boy va rang-barangdir. Cho'l va dashtlar, tog'lar va adirlar, pasttekisliklar va daryo deltalari yonma-yon joylashib ajoyib manzara hosil qiladi. Mamlakatning boy o'simlik dunyosida olti mingdan ortiq turli xil o'simliklar mavjud, ular orasida dorivor o'simliklar ham bor. Bunday o'tlar ekologik toza bo'lib oziq-ovqat, aromatik va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladi. Ushbu maqolada oddiy igir o'simligini bioekologiyasi, plantatsiyasini tashkil etish bo'yicha agrotexnik chora tadbirlar va xom ashyosini tibbiyotda qo'llanilishi to'g'risida malumotlar berilgan.
Kalit so'zlar: Dorivor o'simlik, oddiy igir, farmatsevtika, xom ashyo, ildizpoya, barg, gul, agrotexnika, suv, botqoq, efir moyi, pinen, kamfen, kalamen.

Oddiy igir *(Acorus calamus L.)* - kuchaladoshlar – *Agaseae* oilasiga mansub ko'p yillik bir pallali o't o'similik. Ildizpoyasining yuqori tomonidan barg to'plamlari o'sib chiqqan. Bargi qilichsimon bo'lib uzunligi 120 sm, tekis qirrali va parallel tomirlangan (bir pallali o'simliklarga xos). Poyasi yashil, tik o'suvchi, shoxlanmagan, uch qirrali, bargsiz. Poyada 2 jinsli, so'tacha to'plangan sariq gullar bo'ladi. So'ta konussimon bo'lib, uzunligi 4-12 sm. Gul toplami - so'ta, yonidan 50 sm uzunlikda o'rovchi (qinli) barg chiqadi. Gul qo'rg'oni ko'rimsiz, oddiy, olti bargli, otaligi 6 ta, onalik tuguni 3 xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi - cho'zinchoq, ko'p urug'li, qizil xo'l meva ildiz poya hidli.

Igir ildiz poyasi tarkibida 5% gacha efir, moyi achchiq akorin glikozidi, oshlovchi moddalar smola va 25,5 % gacha kraxmal bo'ladi.

DF XI ga ko'ra butun ildizpoyada 2,2%, qirqilgan va poroshok holidagi mahsulotda 1,5% dan kam efir moyi bo'lmasligi kerak. Efir moyi tarkibidagi 1% pinen, 7% kamfen, 7% kalamen va boshqalar bor.

Igir preparatlari achchiq-xushbo'y dori sifatida ishtaha ochish va ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilash uchun ishlatiladi. Oldingi vaqtlarda buyrak, jigar hamda o't pufagi kasalliklarini davolashda qo'llanilgan. Igir ildizpoyasi parfyumeriyada va oziq-ovqat (likyor tayyorlashda) sanoatida ham ishlatiladi. Igir ildizpoyasining efir moyi buyrak va o't yo'llari tosh kasalligini davolashda hamda uning oldini olishda ishlatiladigan «Olimetin» preparati, ildizpoya kukuni (poroshogi) - me'da va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligida ishlatiladigan «Vikalin» va «Vikair» preparatlari tarkibiga kiradi.

Oddiy igir ildizpoyasidan tayyorlangan preparatlardan surunkali gastrit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yallig'lanishida, ayniqsa, oshqozon shirasi kislotaliligi pasayishida ichketarning xar xil turlarida va ovqat xazm qilish tizimining boshqa noxush xolatlarida keng qo'llaniladi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934



1-rasm. Oddiy igir, (Аир обыкновенный)- *Acorus calamus L*.

Oddiy igir O‘zbekistonning Samarqand viloyati xududida tarqalgan. U turg‘un va sekin oqadigan suvlarda, allyuvial (yirik daryo suvidan ta’minlanib turuvchi grunt suvlari yaqin bo‘lgan qayirlarda, quyi daryo terassalarida va hozirgi deltalarda shakllangan) tuproqlar, daryolar qirg‘oqlarida, irmoqlarda, ko‘l va daryolarning botqoqlashgan qismlarida o‘sadi (1-rasm).

Daryo va suv omborlarida suv satxining kamayishi yoki tuproqda namlikning kamayishi oddiy igir ekinzorlarini yo‘qolib ketishiga olib keladi.

Oddiy igir suv tanqisligiga ta’sirchan bo‘lganligi bois, suv omborlarini qirg‘oqlari bo‘ylab 5-7 m kenglikdagi o‘simlik jamoalarini xosil qiladi. Shu bois oddiy igir o‘simligi jamoasining maydoni bir necha 10 kvadrat metrdan oshmaydi. Xozirgi vaqtda bu o‘simlikdan xom-ashyo jadal ravishda tayyorlanayotganligi sababli uning tabiiy populyatsiyalari maydoni keskin qisqarib ketmoqda.

Oddiy igir suv - botqoq o‘simligi bo‘lib, xayotiy shakliga ko‘ra gidro-gigrofit o‘simlikdir. Respublikamiz sharoitida o‘simlikni zovurlar ichida, ko‘llar atrofida ko‘chat-ildizpoyadan ekiladi.

O‘simlikni ekish oldidan o‘sib turgan joylaridan chim (30x30) sifatida olinib, ko‘chat-ildizpoyaga ajratiladi. Taxminan xar bir chimdan 20-30 dona ko‘chat-ildizpoya tayyorlanadi. Bu ko‘chatlar mart-aprel oylarida suv qirg‘oqlaridagi loyga 15-20 sm chuqurlikda o‘tqaziladi. O‘simlik birinchi vegetatsiya yilida moslashish bosqichini o‘taydi. 2-3- yillarda tez ko‘payadi. Xosil 3-4- yillarda tayyor xolga keladi.

Oddiy igir xom-ashyosini tayyorlash yoz va kuz oylarida (iyun - sentyabr) botqoq va sizot suvlar qurigan vaqtda amalga oshiriladi. Bunda igir ildizpoyasini kovlab, ba’zan esa plug yordamida qazib olinadi, botqoq joylardan esa xaskash yordamida yig‘ib olinadi.

Agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida yuqori saviyada o‘tkazilsa xosildorlik gektar xisobiga 25-30 sentnerni tashkil etadi.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isaqov, T., & Mamatyusupova, R. (2022). MEDICINAL PROPERTIES OF ALOE PLANT. *Science and Innovation*, *1*(7), 623-626.
2. Topvoldiev, T., Mirzayeva, Z. O. K., & Isaqov, T. T. O. G. L. (2021). GROWING BITTER WATERMELON IN UZBEKISTAN AND ITS HEALING PROPERTIES. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *1*(4), 1433-1436.
3. Isaqov, T., & Esonova, I. (2022). MEDICINAL PLANTS WICH INCLUDED IN THE RED BOOK AND THEIR USE IN MEDICINE. *Science and Innovation*, *1*(7), 428-433.
4. Isaqov, T., & Khasanboev, I. (2020). TECHNOLOGY OF CULTIVATION OF MEDICINAL PLANTS CONTAINING ESSENTIAL OILS. In *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (pp. 449-451).
5. Isaqov, T., & Esonova, I. (2022). QIZIL KITOBGA KIRITILGAN DORIVOR O 'SIMLIKLAR VA ULARNING TIBBIYOTDA QO 'LLANILISHI. *Science and innovation*, *1*(D7), 428-433.
6. Isaqov, T., & Mamatyusupova, R. (2022). ALOE O 'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI. *Science and innovation*, *1*(D7), 623-626.
7. Исаков, Т. Т. (2021). CYNARA SCOLYMUS L.) БИОЭКОЛОГИЯ РАСТЕНИЙ И АГРОТЕХНИКА РОСТА. *Экономика и социум*, (12-1 (91)), 1079-1082.
8. Исаков, Т. Т. (2021). БИОЛОГИЯ РАСТЕНИЙ МАКСАР (CARTHAMUS L.) И ЗНАЧЕНИЕ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ. *Экономика и социум*, (11-1 (90)), 1044-1047.
9. Исаков, Т. Т. (2021). ВИДЫ РАСТЕНИЙ АДОНИСА И ЛЕКАРСТВЕННЫЙ ПРЕПАРАТ. *Экономика и социум*, (12-1 (91)), 1075-1078.

WORDLY
KNOWLEDGE